

DRAMATIK MATNLARDA INTERTEKSTUALLIK VA UNING TURLARI

Andaniyazova Gavhar Ruziqulovna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

gavharandaniyazova@gmail.com

[ORCID: 0009-0000-7618-8212](https://orcid.org/0009-0000-7618-8212)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18781695>

Annotatsiya. Mazkur maqolada dramatik matnlarda intertekstuallik hodisasining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dramatik matnlarda intertekstuallikning transformatsiyalangan frazeologizmlar, folklor syujetlari, matn ichida matn, allyuziv va pretsedent nomlar kabi ko'rinishlari misollar asosida ochib beriladi. Hamda intertekstuallik hodisasining dramatik nutqda komik effekt yaratish, qahramonning individual tabiatini ko'rsatish, matnning estetik ta'sir quvvatini oshirishda muhim vosita ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: dramatik matn, intertekstuallik, intermatn, pretsedent birlik, allyuziya, lingvopoetika, estetik ta'sir.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвопоэтические особенности феномена интертекстуальности в драматических текстах. На примерах выявляются такие проявления интертекстуальности в драматических текстах, как трансформированные фразеологизмы, фольклорные сюжеты, текст внутри текста, аллюзивные и прецедентные имена. Также утверждается, что феномен интертекстуальности является важным инструментом создания комического эффекта в драматической речи, демонстрации индивидуальности героя и усиления эстетического воздействия текста.

Ключевые слова: драматический текст, интертекстуальность, интертекст, прецедентное единство, аллюзия, лингвопоэтика, эстетический эффект.

Abstract. This article analyzes the linguapoetic features of intertextuality in dramatic texts. Examples are provided to identify such manifestations of intertextuality in dramatic texts as transformed phraseological units, folkloric themes, text within a text, and allusive and precedent names. It is also argued that intertextuality is an important tool for creating comic effect in dramatic speech, demonstrating the individuality of the character, and enhancing the aesthetic impact of the text.

Key words: dramatic text, intertextuality, intertext, precedent unity, allusion, linguapoetics, aesthetic impact.

Kirish. Dramatik asarlarda muallifning turli badiiy niyatini yoritishga xizmat qiluvchi sintaktik birliklarni tadqiq etish ijodkorning badiiy til mahoratini aniqlash, milliy tilning keng ifoda imkoniyatlarini yoritish masalasida dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, dramatik matnda intertekstuallik nazardan qoldirib bo'lmaydigan hodisalardan biridir. Mazkur lingvopoetik ifoda vositasi badiiy matnning estetik quvvatini oshirishi jihatidan dramaturgning muayyan maqsadini yuzaga chiqaruvchi keng bir imkoniyatdir. Asosiy matn tarkibiga olib kirilgan o'zga matn ijodkorning alohida niyatini namoyon etadi, badiiy matnning estetik qimmatini yanada oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslarning ta'kidlashicha, intertekstuallik tushunchasining ildizi rus olimi M.M.Baxtinning 1924-yilda nashr etilgan "Badiiy so'z ijodiyotida mazmun, material va shakl muammosi" nomli asariga borib bog'lanadi. Ammo bu

atamani fanga 1967-yilda poststrukturalizm nazariyotchisi Yuliya Kristova “Baxtin, so‘z, dialog, roman” risolasi orqali olib kirgan [1. 239]. Intertekstuallik o‘zaro ta’sir shakli sifatida hozirgi kunga qadar tilshunos, balki adabiyotshunos olimlarning ham e’tiborini tortib kelmoqda [2]. Intertekstuallikka qiziqish nafaqat badiiy matn doirasida, balki ilmiy matnlar, matbuot matnlarini o‘rganish doirasida ham ilmiy monografiyalar, maqolalar sirasida olib borilgani, biroq ushbu tadqiqotlar orasida badiiy asarda tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib borilgan tadqiqotlar ko‘lami kamchilikni tashkil qilishi Y.Visochina tadqiqotida tilga olinadi [3. 5].

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham matn bilan ishlash, boshqa matndan olingan birliklar – maqollar, hadislar, boshqa yozuvchilar asarlariga tegishli parchalarni tekshirish, lingvopoetik tahlil qilish uchun badiiy matnni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Xususan, M.Yo‘ldoshev intertekstuallik badiiy matnning tarkiblanishidagi muhim nuqtalaridan biri ekanligini va xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lishini, asosiy matnga olib kiriladigan matn yoki uning muayyan unsuri yozuvchi niyatiga ko‘ra asosiy matn strukturasi turli qismlaridan joy olishi mumkinligini qayd etadi [4. 20-21]. Hamda olim tomonidan intertekstuallik – muayyan matn tarkibida o‘zga matnga daxldor unsurlarning mavjudligi va har qanday badiiy matn intertekstual bo‘lishi shart emas, bu jarayon yozuvchining badiiy maqsadi, uslubi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi, deb ta’rif berilgan.

Olima D.Xudoyberganova esa matnning antropotsentrik tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bevosita intertekstuallik tarkibiga kiruvchi pretsedent birliklarning lingvokulturologik xususiyatlariga urg‘u beradi [5. 92-93]. Tadqiqotchi Z.Saliyeva o‘zbek va ingliz tilidagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosi haqidagi tadqiqotida bu hodisani intertekstuallikning bir ko‘rinishi sifatida baholagan [6].

Tarjimashunos, adabiyotshunos olim M.Xolbekovning ham intertekstuallik yuzasidan bir qancha maqolalari e’lon qilingan [7. 6]. Tilshunos M.Homidova tomonidan esa intertekstuallik haqida dunyo va o‘zbek tilshunosligidagi mavjud nazariy qarashlar tahlil qilinib, intermatn va intertekstuallikning o‘ziga xos jihatlari misollar yordamida dalillangan; badiiy matn persepsiyasida epigraf, sarlavha, allyuziya, iqtibos kabi intertekst turlarining roli tajriba natijalariga ko‘ra isbotlab berilgan [8. 17]. Jumladan, muayyan ijodkor asarlari tilining lingvopoetik tadqiqi borasida olib borilgan ishlar sirasida ham badiiy matndagi intertekstuallik hodisasining qo‘llanilishi o‘ziga xos ijodkorning individual uslubini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Sh.Norovanning “Asqad Muxtorning badiiy til mahorati” nomli dissertatsiyasida “Chinor” romanida qo‘llangan intermatnlarning o‘ziga xosligi va asarga kiritilgan rivoyatlar, folklor matnlar va qissalar romanning estetik mohiyatida alohida o‘rin egallashi ochib berilgan [9. 23].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada dramatik matnlarda intertekstuallik hodisasining ifodalanishi va badiiy ifoda imkoniyatlari muhokama qilinadi. Mazkur

hodisaning dramatik matnlarda uchraydigan turlari tavsiflanadi hamda fikrlar dramatik matndan olingan misollar asosida dalillanadi.

Tahlillar va natijalar. Ma'lumki, bugun o'zbek tilshunosligida badiiy matnda intertekstuallikning xilma-xil shakllarda namoyon bo'lishi turli ijodkorlar asarlari misolida tadqiq qilinyapti. Ammo dramatik matnlar doirasida ushbu hodisa tadqiqi biroz nazardan chetda qolayotganini ko'rish mumkin. Aslida dramatik matnlarda ham intertekstuallikning o'ziga xos ko'rinishlari yuzaga keladi:

1. Transformatsiyalangan frazeologizmlar;
2. Folklor syujetlari;
3. Matn ichida matn;
4. Allyuziv va pretsedent nomlar.

Quyida fikrimizni misollar asosida dalillaymiz va ayrim tahlillarni keltiramiz:

1. Asosiy matn ichida ayrim kontekstual o'zgarishlarga uchragan frazeologik birliklar suhbat jarayonida qahramonning qiyofasi va ichki dunyosi, emotsional holati va voqelikka hissiy munosabati, individual tabiatini aks ettirishda qo'l keladi. Masalan: Sayohatxon. *Nima meni tiriklay yerga ko'mmoqchimisani? Shuni bilib qo'y, bola, men mahallada "Sayohatxon" man, ishxonada "Sayohat Otayevna" bo'laman! Yo'q, bo'ldi!.. **Suyak borib pichoqqa yetdi!***

Zulfiqor (*eshikdan boshini chiqarib*). **"Pichoq borib suyakka yetdi!"** deyiladi, xonim. Sayohat. *E, ishingizni qiling!* ("Eski shahar gavroshlari", 121-bet)

Suyak borib pichoqqa yetdi kabi ibora tilimizda yo'q, iboradagi so'zlarning o'rin almashinuvi esa o'ziga xos kulgi chiqarishga xizmat qilgan. O'zbek xalqida *pichoq borib suyakka yetdi* iborasi mavjud bo'lgani, kishilar ongida tayyor holda saqlangani bois ayrim kontekstual o'zgarishlarga uchragan frazeologik birlikni o'qigandayoq, mazkur iboraga ishora seziladi hamda natijada kulgi hosil bo'ladi. Ammo muallif qahramoni tilidan iborani tuzatish, to'g'rilash orqali vaziyatning kulgili emas, balki tarang ekanligiga ishora qiladi. Yana ijodkor tomonidan *"Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi"*, *"Ota go'ri qozixonami?"* kabi turg'un birikmalarning *"daraxt bo'lmasa, shamolning uchi qimirlamaydi"*, *"Qozi go'ri – otaxonami?"* shaklda kontekstga olib kirilganini ko'ramiz. Bu usulni mohir dramaturg kulgi chiqarish, yumoristik effekt hosil qilishning individual vositasiga aylantirgan.

2. Matn ichida folklor syujetlari, maqol, ertak, afsonalarni keltirish orqali intertekstuallikni ifodalash. Masalan, quyidagi dramatik matnda xalq og'zaki ijodi namunasi ertak nomi va onomastik birlik vositasidagi aloqadorlik asosida yuzaga kelgan. Qahramonning ismi *Zumrad* bo'lgani holda unga *"Zumrad va Qimmat"* ertagidagi xarakter jihatdan zid bo'lgan *Qimmat* nomi bilan birgalikda murojaat qilinadi, ya'ni *Zumrad-Qimmat* tarzida. Natijada ertak sarlavhasi va syujeti bilan aloqalantirilgan intermatn yuzaga kelgan. Bu tarzidagi murojaat yengil kulgi ham hosil qilgan. Umuman, badiiy matn yoki filmlar orqali turg'unlashib, pretsedent birlik darajasiga ko'tarilgan

nomlar orasida shunday bir-birini talab qiluvchi nomlar ham uchraydiki, ularni o‘rinli qo‘llagan ijodkorlar aytilmoqchi bo‘lgan fikrlarini bu kabi nomlar zimmasiga yuklaydi. O‘zbek adabiyotida *Zumrad* antroponimining *Qimmat* bilan, *Egri* antroponimining *To‘g‘ri* bilan assotsiatsiya hosil qilishidan ijodkorlar muayyan badiiy maqsad bilan foydalanganini kuzatish mumkin. Sh.Boshbekov ham *Zumrad* ismli qahramonni *Zumrad-Qimmat* tarzida qayta nomlagan va o‘ziga xos komik effekt yaratishga erishgan. Masalan:

Bir quchoq bargni ko‘tarib Zumrad paydo bo‘ladi. Uning bor fazilati ham, kamchiligi ham bitta – kamgap.

Zumrad. Munis opa, ho‘, Munis opa!..

Tesha. E-ha, Zumrad-Qimmat, senmiding? Qishloqqa qanaqa jarchi kelib qolibdi, debman. Yaxshimisan. (“Tushov uzgan tulporlar”, 71-bet)

3. Ma‘lumki, badiiy matn ichida alohida matnning to‘la aks etishi intertekstuallikni hosil qiladi. Dramaturg Sh.Boshbekov ham asarlarida fikrlarini asoslash va ta‘sirchanligini oshirish maqsadida bunday matn ichidagi matnlardan mahorat bilan foydalangan. Masalan, “Yer baribir aylanaveradi” asarida poraxo‘rlik illatining millat tanazzuli ekanligini ochib berish, xalq nimaga arzisa, shunga yarasha rahbarga ega bo‘lishini ro‘yi rost ko‘rsatish, asoslash maqsadida rivoyatlar va xalq orasida keng yoyilgan voqea-hikoyalardan foydalangan. Badiiy matnda bunday rivoyatlar matn ichida matn sifatida keltiriladi. Ularning har biri asar voqealari syujetiga mos tanlanganligi va asar qatlamdorligini ta‘minlaganligi bilan diqqatga sazovordir.

Yana dramaturg tomonidan o‘zbekona fikrlaydigan, o‘zbekona nutq madaniyatiga ega bo‘lgan qahramonlar xarakterini ishonarli tasvirlash maqsadida xalq orasida keng tarqalgan latifalarni ham dramatik matnga olib kirilishi alohida estetik vazifa bajargan. Bu kabi xalqona iboralar faqat muayyan mahalliy hudud kishilariga tushunarli bo‘lgani uchun ijodkor izohini ham berib ketishni unutmaydi. “*Xolxo‘janing tayog‘i*”, “*Halcha xolaning gapi*” kabi intermatnlar dramada yanada komik effektini yuzaga chiqarishga, biror bir voqea-hodisaning rivojiga va ishonarliligini ta‘minlashga turtki bo‘lgan.

Ta‘kidlash kerakki, mazmuniy ehtiyojga ko‘ra rivoyat, ertak kabilar matn ichiga olib kirilganda ...*xuddi shu, hozirgiday ahvol yuz bergan ekan* boshlang‘ich jumlasini bu intermatnning asosiy matnga bog‘lanishini lisoniy jihatdan ta‘minlagan. Ijodkor ta‘kidlamoqchi bo‘lgan fikr badiiy illyustrativ material bilan dalillangan.

4. Ma‘lumki, yozuvchining badiiy matndan bosh maqsadi, avvalo, kitobxonga estetik ta‘sir qilishdir. Ammo ba‘zan ijodkorlar o‘zlaridan oldin yaratilgan mashhur asarlarga, ularning qahramonlariga, ijtimoiy-tarixiy voqealarga murojaat qilib, o‘zlarining yangi matnlariga singdirishga harakat qilishadi. Ijodkorlar allyuziv va pretsedent nomlardan ham intertekstuallikni yuzaga chiqarishda foydalanadilar. Bunday intertekstual birliklar she‘riy matnlarda faol qo‘llanilishi bilan birga dramatik asarlarda ham obrazlilikni oshirish uchun xizmat qilishi o‘rganildi. Masalan, quyidagi matnda Migel de Servantesning mashhur asari “Don Kixot” asariga ishora qilish orqali obrazlilik oshirilgan: Hokim. *Biz poraxo‘rlik*

bilan kurashyapmiz, Bu kurash Don Kixotning shamol tegirmonlari bilan qilgan jangiga o'xshaydi – hech qanday natija bermaydi. (“Yer baribir aylanaveradi”, 284-bet).

Bunda muayyan bir asardagi obrazli ifoda boshqa bir asarga olib kirilgan va intermatnni yuzaga keltirgan. Intermatnning mazmuni eshituvchiga tanish bo'lgani uchun ham suhbatdoshining gapini tez anglaydi. Bu kabi qahramonning kasbi, mashg'uloti, manzili, hududiy mansubligi, tashqi qiyofasi, yoshi, ko'rinishi, xarakter belgilari, nutqiy qobiliyati, ijtimoiy kimligi, jamiyatdagi o'rni kabilar ism bilan birga qo'llanadi. Bu hodisa ayrim manbalarda blis-portret deb ham yuritiladi [10. 56]. Blis-portretlar badiiy matnda ikki shaklda namoyon bo'ladi: qahramonlar nutqi orqali; muallif nutqi orqali. Qahramonlar nutqida kelgan paytda alohida badiiy qimmatga ega bo'ladi. Ta'kid kuchli va qahramon nutqining bir parchasiga va kuchli ta'kidga aylangan bo'ladi. Muallif nutqida esa informativ xarakterga ega bo'ladi. Ijodkor tomonidan bunday badiiy maqsadga bo'ysundirilgan, mashhur nomlar bilan bog'liq allyuziyalar ko'p uchraydi. Jumladan, *Suqrot, Amir Olimxon, G'irof, “26-si otilmasin”* (kinofilm nomi), *Oshiq G'arib* kabi.

Shuningdek, Janni Rodari, Said Ahmad, G'.G'ulom kabi adiblarning mashhur asarlari bilan bog'liq intermatnlar uchraydi. Asosiy matnga olib kirilgan bunday o'zga matnlar, yoki ularning muayyan unsuri dramaturgning asosiy matni bilan ham mazmunan, ham lisoniy jihatdan uyg'unlasha olgan va asarning badiiy qimmatini oshirib, estetik qimmat kasb etgan.

Ta'kidlash kerakki, jodkor mahorati nafaqat o'zga matnlardan mahorat bilan foydalananda, balki uning asarlaridagi ayrim nomlar va mashhur jumlar jamiyat vakillari orasida tez-tez esga olinishida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, *Alomat* yoki *Temir xotin* – ishchan ayollarga nisbatan; *Qumri* – sodda, gapni tezda ilg'ab olmaydigan insonlarga nisbatan va *“rakatoping”, “odamning erkagi”, “Bozorvoy akam to'rt qopgina turp olib bozorga ketuvdilar”, “Bitta bayroq, bitta lokator”* kabi. Bu kabi jamiyat vakillari tomonidan keng qo'llanadigan, oson tushuniladigan birliklar ayrim ilmiy asarlarda pretsedent birliklar nomi ostida ham tadqiq qilinadi [11. 152].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dramatik matnlarda qahramonlar nutqini individuallashtirish, uning tabiatini yoritish, komik effektini hosil qilish maqsadida intertekstuallik hodisasidan keng foydalaniladi. Dramatik matnlarda iboralar, maqollar, hikoyalar, rivoyatlar, allyuziv birliklar intertekstuallikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tanish nomlar badiiy ifoda imkoniyatlar ko'lamini kengaytirish, matnning estetik ta'sir quvvatini va obrazlilikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kristeva Y. Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte. / Y.Kristeva // Critique, 1967. – T. 23. – № 239.
2. Арнольд И.В., 1995; Богданова О.В., 2002; Валгина Н.С., 2003; Гаспаров М.Л., 2002; Горшков А.И., 2001; Кузьмина Н.А., 2006; Руднев В.П., 2001; Смирнов И.П., 1995; Фатеева Н.А. 2006.
3. Височина Ю. Интертекстуальность прозы Татьяны Толстой: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2007. – С. 5.

4. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 20-21.
5. Худойберганава Д. Бадиий матннинг антропоцентриқ тадқиқи: Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 92-93.
6. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сенцентии в английском и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010.
7. Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – 6-сон.
8. Ҳомидова М. Бадиий матн перцепсиясида интертекстуаллик: Филол. фан. бўйича. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 17.
9. Norova Sh. Asqad Muxtorning badiiy til mahorati: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, ^{2024.} – B. ²³
10. Йўлдошев. М., Ядгаров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007. – Б. 56.
11. Гудкова.Д. Прецедентные имена и проблемы прецедентности. – М., 1999. – С. 152.

